

Parpibayev Botirali Raximjon o'g'li

Namangan Davlat Universiteti

mustaqil tadqiqotchi doktorant,

E-mail: botiraliparpiboyev4@gmail.com

Tel: +99894 100 70 15

“DEVONU LUG’AT-IT TURK”NING ZAMONAVIY TILLARGA MUNOSABATI MASALASI

***Annotatsiya:** Hozirda qadimgi turkiy tillarni o'rganishga juda katta e'tibor berib kelinyapti. Shu o'rinda turkiy tillarning eng qimmatli manbalaridan biri bo'lmish “Devonu lug’at-it turk” asaridagi so'zlarning yasalishi, ularning ma'nolari va hozirgi kunda ularning ahamiyati chuqur o'rganilmoqda. Ushbu maqola aynan shu jihatlarga urg'u beradi.*

***Kalit so'zlar:** til, leksik, sheva, maqol, lug'at, sinonim, dialek*

Парпибаев Ботирали Рахимждан угли,

Наманганский Государственный Университет

независимый исследователь докторант

ВОПРОС ОТНОШЕНИЯ “ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК” К СОВРЕМЕННЫМ ЯЗЫКАМ

***Аннотация:** В настоящее время большое внимание уделяется изучению древнетюркских языков. Именно здесь глубоко исследуется образование слов в одном из наиболее ценных источников тюркских языков “Дивани лугат-ит турк”, их значение и значение в настоящее время. В этой статье основное внимание уделяется именно этим аспектам.*

***Ключевые слова:** язык, лексика, диалект, пословица, словарь, синоним, диалект*

Parpibayev Botirali Raximjon's son

Namangan State University

independent researcher PhD student

THE QUESTION OF THE ATTITUDE OF "DEVONU LUG'AT-IT TURK " TO MODERN LANGUAGES

Annotation: *A great amount of attention is now paid to the study of ancient Turkic languages. At the same time, the making of words, their meanings and their significance, in one of the most valuable sources of Turkic languages, "Devonu lug'at-it turk", are being studied in depth. This article emphasizes exactly these aspects.*

Keywords: *language, lexical, dialect, proverb, dictionary, synonym, dialect*

Kirish

Til – millatning yashash tilsimi. Jaxonda hech bir til yo'qki, o'tmishini butunlay unutib, yangidan kashf qilingan. Bunday bo'lishi uchun, o'sha tilda so'zlovchilar soni butunlay qirilib, yo'q bo'lib ketmog'i darkor. Bitta bo'lsa ham so'zlovchisi bor til, tirik tildir.

Dunyoda millionlab tillar mavjud, lekin hech biri inson hayotiga ona tilidek sokinlik hadya etolmaydi. Shuning uchun ham, ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Sho'ro davrida ona tilimiz katta qiyinchilikni boshidan o'tkazdi. "Umumturkiy daryo ariqlarga bo'lib tashlangani yetmaganday, chig'atoy tilini adabiy tilga aylantirishda leksik boy imkoniyatlar yana ham toraytirilgan, bugungi o'zbek adabiy tiliga asos qilib qarluq-chigil shevalarigina olingan. Juda katta areal — qipchoq lahjasi shevalarining aksar boyliklari adabiy tilga kiritilmagan. Faqat shugina emas, o'g'iz lahjasining sheva boyliklaridan ham juda oz istifoda etilgan" [1, 30]

Adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda 1940-yillardan keyingina ona tilini tiklashga sa'y-

harakatlarga keng yo'l ochib berildi. Tilshunos olimlar, etimologlar, etnograflar bu ishda jonbozlik ko'rsatishdi va qariyb yarim asrdan so'nggina 1989-yilda ona tilimiz va undagi sal kam unutilayozgan lisoniy xazinalarimiz deyarli tiklandi. Ushbu lisoniy xazinalarimizning tiklanishiga eng katta hissasini qo'shgan manba Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot-it turk" asari edi. Qoshg'ariyning o'zi niyat qilganidek, "Bu asar abadiy yodgorlik bo'lsin deb, Xudoga sig'inib, bu kitobni tuzdim". Darhaqiqat, Ushbu qimmatli manba nafaqat o'zbek tili va balki qolgan barcha turkiy tillarning ajdodlar ongi va shuurida ko'milib yotgan ichki xususiyatlarini bizga to'laligicha taqdim etdi va abadiy hamda adabiy yodgorlikka aylandi. Unutilgan so'zlar tiklandi, iste'moldagi so'zlarimizning asl ma'nosi, etimologiyasi qaytadan kashf qilindi. Turkiy tillar o'rtasidagi bog'liqlik, sheva va lahjalarning o'zaro kesishuvi ilm-fan sohasida keng muhokamaga qo'yildi.

Devon shu qadar sodda va tushunarli tilda, talaffuz me'yorlariga amal qilib yozilganki, uni turkiy tillarga mansub so'zlovchi o'qib tushunishi unchalik ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki devonda qo'llanilgan so'z va terminlarning ko'pgina qismi turkiy tillarda hali hamon o'zgarishsiz iste'mol qilinadi yoki zamonaviy so'zlarga asos qilib ko'rsatiladi. Misol uchun, **em** so'zi asarda tahlil qilinayotib, **em, dori, davo** ma'nolariga tenglashtiriladi. Asarning o'zida "**emchi deyilishi shundandir**"[2, 1-jild, 74-bet] deya izohlanadi. Darhaqiqat, zamonaviy o'zbek tilida ham tibbiyot sohasida **emlama, emlamoq, em bo'lmoq** so'zlari asosi ayni mana shu so'zga borib taqalishiga shubha yo'qdir.

Tadqiqot metodologiyasi

"Devoni lug'at-it turk"ning eng muhim mavzularidan biri so'z yasalishi, ya'ni mavjud so'zlardan yangi so'zlarni yasash jarayonidir. Albatta, so'z yasash har qanday tilning muhim qismi bo'lib, uning so'z boyligini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, **taradi** so'zidan **targ'aq (taroq), tirildi – tirig, bichdi – bichim, oqdi – oqin, yig'di – yig'in, quridi – qurug'** so'zlari bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Aniqroq misol keltiradigan bo'lsak, avvallari o'g'uz lahjasida qo'llangan **bezik** so'zi **larza, titrash** ma'nosini anglatib, insonlarda qizamiq,

suvchechak kasalliklari paydo bo'lganida tinimsiz qaltirab, istma chiqarganida ishlatilgan. Keyinchalik, ayni shu so'z asosida "**bezmoq, bezimoq, bezillamoq** so'zlari hosil qilinib, to'xtovsiz qandaydir mahg'ulot qilish asnosida nimadandir **charchamoq, hormoq** ma'nolari kelib chiqqanligi manbalarda qayd etiladi. **Bezgak** so'zining asosi ham ayni shu **bezdi** yoki **bezik** so'zi ekanligi tilshunoslik jihatidan to'la mos keladi.

Tahlillar va natijalar

Demak, lug'at faqat alohida so'z ma'nolarini emas, balki ularning grammatik shakllarini, hol qo'shimchalarini, fe'l kelishiklarini ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, lug'atda ikki yoki undan ortiq so'zlarning qo'shib yangi so'z yasalishi natijasida hosil bo'ladigan qo'shma so'zlarning yasalishi haqidagi ma'lumot asarning qadr-qimmatini yanada oshiradi. Qoshg'ariy qo'shma so'zlarning keng doirasini, jumladan, ikki yoki undan ortiq fe'l, ikki yoki undan ortiq ot yoki fe'l va otning qo'shib yasalishi bilan yaratilgan so'zlarni o'rganadi. Misol uchun, o'g'il-qiz so'zi bu yerda o'z asl ma'nosidan chetga chiqib, zurriyod, nasl ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek,

Saroy-qarshi – imorat, uskuna, mol-mulk

Ot-ustom – mol-hol, oltin-kumush

Kuch-quvvat – imkoniyat

Tun-kun – 1 kun, sutka

Yil-oy – doimo, hamisha, to'xtovsiz.

Devonning yana bir jihati borki, Mahmud Qoshg'ariy so'zlarning sinonimini qo'llash orqali, so'zlarning o'zaro stilistik jihatlarini ham yaqqol ochib beradi va jumlagi uslubiy bo'yoq va ohangdorlik taqdim etadi. Misol uchun, XI asrga qadar faqatgina **Bilka** so'zi bilimli ma'nosini anglatgan bo'lsa, Qoshg'ariy unga teng qilib, **biliglik, o'qushlug', olim** so'zlarini ham qo'llaydi.

Quyidagi jumladagi sinonim so'zlarning o'zaro ma'noviy uyg'unlashuviga e'tiboringizni qarating:

*"Neku ter eshitgil tojik **bilkasi**,*

Biliklik kishilar kishisi bo'lur,

O'qushlug' kishidan kishilik kelur."

Shuningdek, Qoshg'ariy o'sha paytdagi ***sixtamoq*** so'zi o'rniga ***yig'lamoq*** so'zidan foydalangan. Keyinchalik, paydo bo'lgan ***yig'i-sig'i*** juft otining yasalish hodisasiga ham ayni shu fe'l asos bo'lgan.

Qoshg'ariy o'z asarida yoritgan so'z yasalishining yana bir muhim jihati - mavjud so'zga morfema (affiks) qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan so'zlar bo'lgan hosila so'zlarning yasalishidir. Turk tillarda hosila so'zlar qo'shimchalar yordamida yoki so'z o'zagini o'zgartirish orqali yasalishi mumkin. Qoshg'ariy hosila so'zlarga, jumladan, fe'l va otlarga ko'plab misollar keltiradi. Misol uchun, - ***chi*** affiksi ma'lum bir kasb-hunar egasi ma'nosini ifodalaydi. ***Emchi, temurchi, bitikchi, jatchi (afsungar)*** shular jumlasidandur. -***g'u*** affiksi esa fe'l o'zaklariga qo'shib, joy, vaqt va qurol otlarini yasaydi. Asarning o'zida quyidagi misollar keltiriladi: ***borg'u yer – borar joy, turg'u yer – turar joy*** kabi. Agar Qoshg'ariyning so'z turkumlarni faqatgina ot va fe'llarga bo'lganini hisobga olsak, zamonaviy tilimizda so'z turkumlari birmuncha kengaygan. Devonda keltirilgan "***Ot tushog'u bo'ldi, ot bo'shug'u bo'ldi***"[2, 1-jild, 393-bet] kabi gaplarda -***g'u*** qo'shimchasi sifatdash yasovchi affiks ma'nosida ham yuritilganligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu gaplarning tarjimai "***ot tushovlanadigan vaqt bo'ldi, ot bo'shovlanadigan vaqt bo'ldi***" ma'nolarini anglatadi. Bilamizki -gan affiksi zamonaviy tilshunoslikda sifatdash yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Yana bir qo'shimcha -***la*** affiksi fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lib, ot so'z turkumidagi so'zlarni fe'llarga aylantirgan. Misol uchun, ***jat*** [2, 3-jild, 322-bet] so'zi "***jada, yada***" so'zlarining ma'nolariga yaqin bo'lib, yomg'ir va shamol keltirish uchun toshlar bilan qilinadigan fusungarlik demakdir. ***Jatladi*** so'zi ham shunga mos ravishda afsun o'qidi ma'nosini beradi. ***Jatchi jatladi – afsunchi yomg'ir yog'dirish uchun yada toshi bilan duo o'qidi.*** [2, 3-jild, 8-bet] (Shu yerda – lik qo'shimchasi ham tahlil qilinishi kk)

Shuningdek, ikki so'zning birlashuvidan qo'shma so'zlarning hosil bo'lishi ham ushbu asarning lug'at bo'limini yanada boyitgan. Devonda "***qulach – quloch.***

Asli qol ach – qo’l och – qo’lni och, quloch yoz. Bir qulach barchin – bir quloch shohi” [2, 3-jild, 322-bet] kabi ma’lumot keltiriladi. Ko’rinib turibdiki, bu yerda quloch so’zi “qo’l och” so’z birikmasidagi ikki so’zni birlashuvidan hosil bo’lgan va qo’l yoyilgandagi sig’im ma’nosini anglatadi.

Qoshg’ariy ochib bergan yana bir qimmatli ma’lumot turkiy so’zlarning kelib chiqishi edi. U O’rta Osiyo bo’ylab ko’p kezgan, turli turkiy qabilalardan ma’lumot to’plagan va ularning lug’atini yozib olgan. U turkiy so’zlarning kelib chiqishini mahalliy lug’at yoki qo’shni tillardan fors, arab, mo’g’ul tillaridan o’zlashtirilgan lug’at deb tasniflashga harakat qilgan (chunki dunyoda boshqa tillardan so’z olmaydigan, o’zlashtirmaydigan so’zning o’zi yo’q. tillar bir-birini hisobiga yashaydi, boyiydi va sayqallanadi). Misol uchun, devonda keltirilgan kirit so’zi negizi arab tiligi yaqinligiga urg’u beriladi. “**kirit – kalit, qulf kaliti**. Bu so’z arabchaga yaqindir. Chunki arabcha (arabcha) iqliddir. Bu so’zdagi q harfi k ga, l harfi r ga, d harfi t ga almashgan, alif tushirilgan” [2, 1-jild, 340-bet]. Va ayni shu so’zdan affiksatsiya usuli orqali kiritlik – qulf, zamok; kiritladi – qulfladi kabi so’zlar hosil qilingan.

Bundan tashqari, Qoshg’ariy ijodida omonim so’zlardan unumli foydalangan. Misol tariqasida **jat – yada** ba’zi o’rinlarda **jada** toshi talaffuzi va yozilishi va unga omonim sifatida **jat – yot** fe’li, va shuningdek **jat – yot, begona** so’zlarini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari

1. **Jarlig’** – yo’qsul, bechora, jarlig’ er – yorlaqangan (rahm qilingan) odam shundan olingandir.
2. **Jarlig’** – xoqonning xati, farmoni (chigilcha). Buni o’g’uzlar bilmaydilar.
 1. **Jashlig’**- Jashlig’ ko’z – yoshli ko’z.
 2. **Jashlig’** – yoshlik, katta yosh, qari. Jashlig’ er – katta yoshli odam. Katta yoshli hayvonlarga ham bu so’z qo’llanadi. Bu so’zning asli jashlig’dir.
1. **Uja** – uya, qush uyasi
2. **Uja** – birodar, yaqin. “Tawar uchuntenri uzalmazib, uja qadash, og’lini chinla bog’ar” [2, 1-jild, 339-bet]. Mol uchun Tangrini eslamay, yaqin birodarining o’g’lini chindan bo’g’adi.

1. **Ulag'** – bekning buyrug'i bilan yuruvchi pochta¹ning ma'lum bekatlardan ayriboshlab miniladigan oti [2, 1-jild, 113-bet]
2. **Ulag'** – yamoq, to'n yamog'I [2, 1-jild, 143-bet]

Shunisi ahamiyatga molikki, ushbu omonim so'zlarning ba'zilari hozirgi zamonaviy o'zbek tilimizda ham o'z omonimligini saqlab qolgan.

Dialektik xususiyatlar. Bundan tashqari, Qoshg'ariy davrida mavjud bo'lgan shevaga xos xususiyatlarning zamonaviy tilshunoslikda ham qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Qoshg'ariy ayrim so'zlar izohini keltirar ekan, ularning talaffuzi ayrim lahja va shevalarda farq qilishini ham aytib o'tadi. Misol uchun, **bug'daj – bug'doy**. Maqolda shunday kelgan: **bug'daj qatinda sarfaj suwalur. Bug'doy orqasidan qoramug' ham suv ichadi**. Bu maqol birovga hamsuhbat bo'lish natijasida yaxshilikka erishgan kishiga aytiladi. Barsag'onliklar bug'daj deb talaffuz qila olmaydilar, ular budg'aj deyilar. "Barsag'onlik emasman degan kishiga shu so'zni aytirib sinaladi.[2, 1-jild, 143-bet] Ushbu hodisa metateza hodisasi bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ham bir qancha so'zlarda uchraydi. Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslikda ham eski turkiy so'zlar va Grammatik qoidalar saqlanib qolganki, quyida ularning bir qanchasi tahlil qilinadi. Misol uchun, yomg'ir-yog'mir, turpoq-tuproq, daryo-dayro, surpa-supra, devor-devol, aylanay-aynalay, ko'ylak-ko'ynak kabi. Ushbu hodisa asosan qarluq, chigil, uyg'ur shevasiga asoslangan bo'lib, hozirda tilshunoslikda metateza hodisasi deb yuritiladi. Qarluq, chigil, uyg'ur shevasida ch harfini sh deb talaffuz qilish: uchta-ushta, pochta-poshta. Qipchoq shevasida g' harfini v va g harfini y deb talaffuz qilish: bug'doy-buvdoy, tugma-tuyma, tegma-tiyma, egnim, eynim igna-iyna, pedagogika-pedagoyika kabilar. Shuningdek f harfini p deyish ham aynan shu lahjaga xos: futbol-putbol. Garchi ushbu qoidalar hozirda qarluq, chigil, uyg'urga asoslangan deyilmasa-da, mamlakatimizda viloyatlararo farqlanadi deb yuritiladi: Farg'ona shevasi, Toshkent shevasi, Buxoro shevasi kabi. Misol uchun Toshkent shevasida a ni o, e ni a deb aytilishi. Men – man, aka – oka, chekmoq – chakmoq. Ushbu ma'lumotlar zamonaviy o'zbek tili va qadimgi turk tillari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Devon” da keltirilgan leksik va grammatik xususiyatlar, soʻz yasalishi, talaffuz qoidalari, sheva va lahjalar bugungi kunda ham oʻz kuchini yoʻqotmagan va aksincha zamonaviy tilshunoslik qonun-qoidalariga qaytadan kiritilmoqda. Ushbu asar orqali maqol va matallarda maʼnolari notoʻgʻri tahlil qilingan soʻzlar oʻz maʼnolariga moslanib, yanada sayqal topmoqda. Hayratlanarlisi shundaki, Mahmud Qoshgʻariy qoʻllagan 875 ta soʻz, 60 ta maqol va matal biron-bir oʻzgarishsiz zamonaviy turkiy tilimizga kirib kelgan (oy, olim, oʻgra (xamirli taom), egildi kabi soʻzlar, “baliq suvda, koʻzi tashda (tashqarida)”). Albatta, baʼzi soʻzlar biroz oʻzgargan (azuq - oziq-ovqat), baʼzilari qoʻllanilish jihatidan biroz farqli (ikkiz ogʻlan - egizaklar), baʼzilari hozirda turmushimizda faol qoʻllaniladigan soʻzlarga asos vazifasini oʻtaydi (oʻpladi – xoʻpladi), baʼzilari arxaik holga tushgan (ajun – dunyo), yana baʼzilarining shakli oʻzgargan (ara – ora, orasi) boʻlishiga qaramasdan, hozirgi zamonaviy tilimizning asosi, folkloristik janrlarning negizi sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matluba Rahimova “Til ham bir daraxt”, Toshkent, 2009. -30 b
2. Mahmud Qashgariy. Turkiy so’zlar devoni (Devonu lug’ot-it turk)//Perevod Mutallibova. - Tashkent, 1960-1963. T. I-III jildlar.
3. Mahmud al-Kashgari, *Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk)*, edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. - Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi Q 416). Part II: 1984 (Pp. III Q 381). Part III: 1985 (Pp. 337 Q microfiche).
4. G’.Abduraxmonov, S.Mutallibov Mahmud Koshg’ariy. Indeks-lug’at “Turkiy so’zlar devoni” (Devonu lug’otit turk), Toshkent, O’zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. 1965 y.
5. I.A.Islomov. Turkiy tilda qavm-qarindoshlik terminlari. T. Fan. 1966 y